




QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASI STATISTIKA BO'LIMI

2024- yil yanvar oyi



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar oyida)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 65,1%**

**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
463,1
ming so'm**

**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi – 65,0%**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-fevral holatiga ko'ra)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(2024-yil yanvar oyida)

Soni, birlikda



Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-fevral holatiga ko'ra)

Soni, birlikda

16 399

2024

19 266

2023

16 574

2022

13 526

2021

10 782

2020

58,9%

2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

52,1%

Soni, birlikda

233

2024

245

2023

230

2022

396

2021

240

2020

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar oyida)

2024

65,6%


Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

56,3%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(2024- yil yanvar oyida)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar oyida)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar oyida)

| Hududlar nomi | Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i> | Ulushi, <i>% da</i> | O'sish sur'ati, <i>% da</i> |
|--|-------------------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati¹⁾ | 1 630,7 | 100,0 | 116,4 |
| Qarshi shahar | 486,7 | 29,8 | 125,1 |
| Shahrisabz shahar | 64,9 | 4,0 | 115,6 |
| G'uzor tumani | 66,3 | 4,1 | 112,5 |
| Dehqonobod tumani | 47,4 | 2,9 | 112,2 |
| Qamashi tumani | 95,5 | 5,9 | 111,4 |
| Qarshi tumani | 92,2 | 5,7 | 112,3 |
| Koson tumani | 116,7 | 7,2 | 116,3 |
| Kitob tumani | 108,5 | 6,7 | 113,4 |
| Mirishkor tumani | 75,5 | 4,6 | 111,7 |
| Muborak tumani | 85,5 | 5,2 | 112,4 |
| Nishon tumani | 63,3 | 3,9 | 112,9 |
| Kasbi tumani | 72,0 | 4,4 | 111,8 |
| Ko'kdala tumani | 23,6 | 1,4 | 113,8 |
| Chiroqchi tumani | 54,2 | 3,3 | 113,1 |
| Shahrisabz tumani | 102,8 | 6,3 | 112,6 |
| Yakkabog' tumani | 75,6 | 4,6 | 112,5 |

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar oyida)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar oyida)

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar oyida)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **65,1** foizni, shu jumladan, **1062,1** mlrd so'm hajmi kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tashkil etdi.

 Hajmi, mlrd. so'mda
  O'sish sur'ati

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar oyida)

| | | |
|-------------------|-------|--------|
| Qarshi shahar | 176,7 | +16,8% |
| Koson tumani | 98,5 | +17,2% |
| Kitob tumani | 89,2 | +8,0% |
| Qamashi tumani | 80,1 | +12,0% |
| Shahrisabz tumani | 76,0 | +12,1% |
| Qarshi tumani | 73,3 | +8,1% |
| Mirishkor tumani | 68,0 | +11,6% |
| Kasbi tumani | 60,9 | +14,2% |
| Muborak tumani | 58,3 | +9,2% |
| Yakkabog' tumani | 58,1 | +12,0% |
| Nishon tumani | 49,2 | +13,0% |
| G'uzor tumani | 46,8 | +17,6% |
| Chiroqchi tumani | 40,8 | +12,0% |
| Dehqonobod tumani | 35,8 | +12,0% |
| Shahrisabz shahar | 31,7 | +9,5% |
| Ko'kdala tumani | 18,7 | +15,0% |

 Hajmi, mlrd. so'mda
  O'sishi

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar oyida)

| Xizmat turlarining nomi | Hajmi, mlrd. so'mda | Ulushi, % da | O'sish sur'ati, % da |
|--|------------------------|-----------------|-------------------------|
| Xizmatlar – jami | 1 630,7 | 100,0 | 116,4 |
| shu jumladan: | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 86,4 | 5,3 | 115,5 |
| Moliyaviy xizmatlar | 339,8 | 20,8 | 130,7 |
| Transport xizmatlari | 327,1 | 20,1 | 111,9 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 310,6 | 19,0 | 111,2 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 52,0 | 3,2 | 107,7 |
| Savdo xizmatlari | 466,8 | 28,6 | 108,6 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 35,8 | 2,2 | 104,8 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 63,5 | 3,9 | 176,9 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 22,5 | 1,4 | 126,8 |
| Ijara xizmatlari | 35,1 | 2,2 | 108,5 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 62,0 | 3,8 | 105,0 |
| Shaxsiy xizmatlar | 61,2 | 3,7 | 109,2 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 14,8 | 0,9 | 122,6 |
| Boshqa xizmatlar | 63,7 | 3,9 | 122,1 |

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

2024-yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **85,0** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi¹⁾ (2024- yil yanvar oyida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar)



Savdo xizmatlari umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **14,7** foizni yoki **68,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar** oyiga nisbatan Qashqadaryo viloyatida **93,3** % yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **97,9** foiz.

Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **53,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **115,7** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024- yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar oyida)

| | | |
|-------------------|------|--------|
| Yakkabog' tumani | 17,4 | +4,4% |
| Shahrisabz tumani | 36,6 | +13,0% |
| Chiroqchi tumani | 10,6 | +12,8% |
| Ko'kdala tumani | 5,4 | +13,8% |
| Kasbi tumani | 16,7 | +10,6% |
| Nishon tumani | 17,6 | +8,8% |
| Muborak tumani | 20,6 | +7,3% |
| Mirishkor tumani | 26,9 | +4,9% |
| Kitob tumani | 20,1 | +25,8% |
| Koson tumani | 29,5 | +21,1% |
| Qarshi tumani | 29,8 | +4,1% |
| Qamashi tumani | 11,7 | +7,4% |
| Dehqonobod tumani | 11,6 | +13,7% |
| G'uzor tumani | 15,1 | +27,7% |
| Shahrisabz shahar | 4,5 | +4,4% |
| Qarshi shahar | 53,3 | +15,7% |

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2024- yil yanvar oyida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar oyida)

| | |
|-------------------|-------|
| Qarshi shahar | 201,1 |
| Shahrisabz shahar | 20,6 |
| G'uzor tumani | 9,0 |
| Dehqonobod tumani | 4,8 |
| Qamashi tumnai | 9,0 |
| Qarshi tumani | 8,8 |
| Koson tumani | 10,3 |
| Kitob tumani | 14,4 |
| Mirishkor tumani | 3,7 |
| Muborak tumani | 9,0 |
| Nishon tumani | 5,8 |
| Kasbi tumani | 5,2 |
| Ko'kdala tumani | 1,3 |
| Chiroqchi tumani | 3,2 |
| Shahrisabz tumani | 20,7 |
| Yakkabog'tumani | 9,8 |

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **59,2** foizni yoki **201,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar** oyiga nisbatan Mirishkor tumanida yuqori o'sish sur'ati **139,3** foizni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

2024- yilning yanvar oyiga ularning ulushi 94,3 foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar oyida)

| | | |
|-------------------|------|---------|
| Yakkabog' tumani | 6,1 | +12,7% |
| Shahrisabz tumani | 4,7 | +119,5% |
| Chiroqchi tumani | 5,8 | +13,7% |
| Ko'kdala tumani | 3,4 | +7,2% |
| Kasbi tumani | 4,4 | +15,6% |
| Nishon tumani | 4,0 | +18,0% |
| Muborak tumani | 2,6 | +16,3% |
| Mirishkor tumani | 3,2 | +10,9% |
| Kitob tumani | 5,2 | +20,2% |
| Koson tumani | 6,4 | +5,8% |
| Qarshi tuman | 6,1 | +8,3% |
| Qamashi tumani | 6,0 | +5,3% |
| Dehqonobod tumani | 3,4 | +8,0% |
| G'uzor tumani | 4,7 | +12,0% |
| Shahrisabz shahar | 6,6 | +27,2% |
| Qarshi shahar | 13,9 | +29,9% |


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd.so'mda


O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar oyida)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2024- yil yanvar-oyida ulushi 3,9 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024-yil yanvar oyida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar oyida)

2024-yilning yanvar

oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 1,4 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar oyida)

| | | |
|-------------------|------|--------|
| Yakkabog' tumani | 0,3 | +14,2% |
| Shahrisabz tumani | 0,9 | +14,1% |
| Chiroqchi tumani | 0,1 | +11,3% |
| Ko'kdala tumani | - | +11,6% |
| Kasbi tumani | 0,4 | +9,9% |
| Nishon tumani | 0,2 | +13,7% |
| Muborak tumani | 1,0 | +12,5% |
| Mirishkor tumani | 1,0 | +9,9% |
| Kitob tumani | 1,3 | +11,1% |
| Koson tumani | 0,3 | +12,1% |
| Qarshi tumani | 0,3 | +14,5% |
| Qamashi tumani | 0,8 | +7,4% |
| Dehqonobod tumani | 0,2 | +8,0% |
| G'uzor tumani | 0,1 | +18,4% |
| Shahrisabz shahar | 1,3 | +9,6% |
| Qarshi shahar | 14,3 | +39,1% |

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar oyida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar oyida)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi


2024- yilning yanvar

oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **94,1 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar oyida)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar oyida, mlrd. so'mda)

| | |
|-------------------|-----|
| Qarshi shahar | 3,3 |
| Shahrisabz shahar | 0,9 |
| G'uzor tumani | 1,5 |
| Dehqonobod tumani | 3,2 |
| Qamashi tumani | 6,0 |
| Qarshi tumani | 3,0 |
| Koson tumani | 2,6 |
| Kitob tumani | 2,6 |
| Mirishkor tumani | 1,7 |
| Muborak tumani | 1,2 |
| Nishon tumani | 1,8 |
| Kasbi tumani | 2,2 |
| Ko'kdala tumani | 0,7 |
| Chiroqchi tumani | 1,2 |
| Shahrisabz tumani | 1,1 |
| Yakkabog' tumani | 2,3 |

2020- yilning yanvariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **14,4** mlrd. so'mga oshib, **35,1** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **97,9** foizni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar oyida)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 21,0 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar oyida)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar oyida)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar oyida, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 4,0 mlrd. so'mga oshib, 14,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi 77,2 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel: (75)-221-44-32

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalari (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.